

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



# ANDIJON VILOYATIDAGI DEMOGRAFIK HOLAT


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Andijon viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 3050,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida yil boshiga nisbatan 38,8 ming kishiga yoki 1,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1595,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 52,3 %), qishloq aholisi soni 1455,1 ming kishini (47,7 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:****2018 yil yanvar-sentyabr**


- Aholi soni **38,8 ming kishiga** ko'paydi.
- **Tirik tug'ilganlar** soni **51,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **11,2, mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **17,1 mingta nikoh** va **2,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Andijon viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida)



## Andijon viloyat kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2018 yil 1 oktyabr holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



*tuman va shaharlar*

Andijon viloyat kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Andijon shahrida 432,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni) va Asaka tumanida 317,5 ming kishini (10,4 %), aksincha eng kam aholi soni Xonobod shahrida 41,5 ming kishini (1,4 %) va Ulug'nor tumanida 57,9 ming kishi (1,9 %) tashkil etdi.

Doimiy aholining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi viloyatda 1,7 %ni tashkil etdi. Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Andijon tumanida 2,0 %ga, Asaka tumanida 2,0 %ga, Paxtaobod tumanida 1,9 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Andijon shahrida 1,4 %ni, Xonobod shahrida 1,5 %ni tashkil etdi.



**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 51,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 22,1 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan keskin o'sishi Qo'rg'ontepa tumanida (20,5 promilledan 22,1 promillega) va Jalaquduq tumanida (20,8 promilledan 22,3 promillega), Shaxrixon tumanida (23,4 promilledan 24,6 promillega) kuzatildi, kamayish holatlari esa aksincha Bo'z tumani (24,1 promilledan 22,2 promillega), Marxamat tumanida (23,3 promilledan 22,6 promillega) kuzatildi.

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Andijon viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi

	2017 yil yanvar-sentyabr		2018 yil yanvar-sentyabr	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
<b>Andijon viloyati</b>	<b>49 338</b>	<b>22,1</b>	<b>51 343</b>	<b>22,6</b>
Andijon sh.	6 740	21,3	7 041	21,9
Xonobod sh.	566	18,6	561	18,2
tumanlar:				
Oltinko'l	2 881	23,0	2 943	23,0
Andijon	4 158	22,4	4 290	22,7
Baliqchi	3 165	22,3	3 125	21,6
Bo'z	1 229	24,1	1 154	22,2

Buloqboshi	2 062	20,3	2 203	21,4
Jalaquduq	2 757	20,8	3 006	22,3
Izboskan	3 816	22,7	3 967	23,2
Ulug'nor	884	20,9	886	20,6
Qo'rg'ontepa	3 137	20,5	3 447	22,1
Asaka	5 276	22,8	5 534	23,5
Marxamat	2 866	23,3	2 827	22,6
Shaxrihon	4 937	23,4	5 293	24,6
Paxtabod	3 127	22,9	3 231	23,3
Xo'jaobod	1 737	22,3	1 835	23,2

**Vafot etganlar.** 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida 11,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan -0,4 promillega kamaygan (2017 yilda 5,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan eng ko'p Xonobod shahrida (4,9 promilledan 4,0 promillega), Paxtaobod tumanida (5,2 promilledan 4,6 promillega) va Jalaquduq tumanida (5,4 promilledan 4,8 promillega) kamaydi.

### Andijon viloyati bo'yicha vafot etganlar soni

(yanvar-sentyabr)

	2017 yil yanvar-sentyabr		2018 yil yanvar-sentyabr	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
<b>Andijon viloyati</b>	<b>11 743</b>	<b>5,3</b>	<b>11 194</b>	<b>4,9</b>
Andijon sh.	1 789	5,6	1 733	5,4
Xonobod sh.	150	4,9	125	4,0


tumanlar:				
Oltinko'l	620	4,9	591	4,6
Andijon	1 001	5,4	959	5,1
Baliqchi	709	5,0	686	4,7
Bo'z	263	5,1	267	5,1
Buloqboshi	514	5,1	496	4,8
Jalaquduq	714	5,4	640	4,8
Izboskan	959	5,7	900	5,3
Ulug'nor	183	4,3	206	4,8
Qo'rg'ontepa	770	5,0	716	4,6
Asaka	1 238	5,4	1 142	4,8
Marxamat	647	5,3	635	5,1
Shaxrihon	1 026	4,9	1 015	4,7
Paxtabod	712	5,2	645	4,6
Xo'jaobod	448	5,7	438	5,5

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,9 %i o'sma kasalliklaridan, 4,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,8%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,6 %i nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 783 ta nafarni tashkil etib, ularning 69,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,7%i nafas olish organlari kasalliklaridan, 4,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,6%i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari va 6,6%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 40,2 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 2,6 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 2,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



*Tabiiy o'sishi:  
40,2 ming kishi*



**Nikoh.** 2018 yil yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 17,1 mingta nikoh qayd etildi. Andijon viloyati bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,5 promilleni tashkil etmoqda.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahri (130,1 %), Izboskan tumanida (127,1 %) va Xo'jaobod (120,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yil yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi



Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shaxrixon tumanida (157,6 %), Buloqboshi (139,3 %), Oltinko'l (135,0 %) va Jalaquduq (131,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Andijon viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik**  
*yanvar-sentyabr*

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
<b>Andijon viloyati</b>	<b>15 955</b>	<b>17 100</b>	<b>2 418</b>	<b>2 931</b>
Andijon sh.	2 328	2 546	411	473
Xonobod sh.	163	212	46	55
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	918	1 002	123	166
Andijon	1 323	1 418	201	252
Baliqch	1 028	996	122	148
Bo'z	367	329	56	54
Buloqboshi	721	725	112	156
Jalaquduq	945	1 078	129	170
Izboskan	1 160	1 474	204	248
Ulug'nor	251	290	32	36
Qo'rg'ontepa	1 136	1 162	161	188
Asaka	1 557	1 653	259	301
Marxamat	899	839	176	179
Shaxrihon	1 564	1 571	151	238
Paxtabod	1 027	1 120	145	168
Xo'jaobod	568	685	90	99

**Migratsiya.** 2018 yilning yanvar-sentabr davrida Andijon viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus -1,4 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga kamaygan.

### Aholi migratsiyasi, ming kishi

	2017 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	4,7	4,8
Ko'chib ketganlar	6,2	6,2
Migratsiya saldosi	-1,5	-1,4

**Ko'chib kelganlar:** Ko'chib ketganlarning nisbatan yuqori darajasi Andijon tumani (1,2 ming kishi), Andijon shahri (1,1 ming kishi), Asaka (0,5 ming kishi) va Izboskan (0,4 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

**Ko'chib ketganlar:** Ko'chib ketganlarning nisbatan eng yuqori soni Andijon shahri (1,6 ming kishi), Andijon tumani (0,7 ming kishi), Shaxrixon (0,5 ming kishi), Izboskan (0,3 ming kishi) va Qo'rg'ontepa (0,4 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

**Migratsion saldo:** Migratsiya saldosinging manfiy yuqori darajasi Andijon shahri (minus 0,6 ming kishi), Shaxrihon (minus 0,4 ming kishi), Jalaquduq tumani (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi va aksincha ijobiy yuqori darajasi Andijon (plyus 0,6 ming kishi) va Asaka (plyus 0,1 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.